

ISSN: 2181-0834  
DOI: 10.26739/2181-0834

# GEOGRAPHY:

NATURE AND SOCIETY

*Informing scientific practices around the world through research and development*



**2020**

VOLUME 3, ISSUE 1

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI

**Bosh muharrir:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Rafiqov Vahob Asomovich**  
geografiya fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Sharipov Shavkat Muxamajanovich**  
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

**“Geografiya: tabiat va jamiyat” jurnali tahririy maslahat kengashi**  
**Редакционный совет журнала “География: природа и общество”**  
**Editorial Board of the Journal of Geography: Nature and Society**

**11.00.01 – Tabiiy geografiya /**  
**Физическая география /**  
**Physical geography**

*Urazbayev A.K. – g.f.d., professor*  
*Raxmatullayev A. – g.f.d., professor*  
*Abdunazarov O‘.Q. – g.f.n., dotsent*  
*Mirakmalov M.T. – g.f.n., dotsent*  
*Ibragimova R.A. – g.f.n., dotsent*  
*Yarashev Q.S. – PhD, dotsent*

**11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya /**  
**Экономическая и социальная география /**  
**Economic and social geography**

*Tojiyeva Z.N. – g.f.d., professor*  
*Ahmadaliyev Y.I. – g.f.d., professor*  
*Komilova N.K. – g.f.d., professor*  
*Safarova N.I. – g.f.n., dotsent*  
*Tashtayeva S.K. – g.f.n., dotsent*  
*Egamberdiyeva M.M. – g.f.n., dotsent*

**11.00.03 – Quruqlik gidrologiyasi. Suv**  
**resurslari. Hidrokimyo / Гидрология суши.**  
**Водные ресурсы. Гидрохимия / Land**  
**Hydrology. Water resources. Hydrochemistry**

*Hikmatov F.H. – g.f.d., professor*  
*Adenbayev B.Y. – g.f.d., dotsent*  
*Myagkov S.V. – g.f.d., professor*  
*Yunusov G‘.X. – g.f.n., dotsent*

**11.00.04 – Meteorologiya. Iqlimshunoslik.**  
**Агrometeorologiya / Метеорология. Климатология.**  
**Агrometeorologiya / Meteorology. Climatology.**

**Агrometeorology**  
*Egamberdiyev X.T. – DSc, dotsent*  
*Abdullayev A.Q. – g.f.d., professor*  
*Petrov Y.V. – g.f.n., professor*  
*Xolmatjonov B.M. – DSc, dotsent*  
*Xolboyev G. – g.f.n., dotsent*

**11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish**  
**va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish /**  
**Охрана окружающей среды и рациональное**  
**использование природных ресурсов /**  
**Environmental protection and rational**  
**use of natural resources**

*Rafiqov V.A. – g.f.d., professor*  
*Sabitova N.I. – g.f.d., professor*  
*Nigmatov A.N. – g.f.d., professor*  
*Sharipov Sh.M. – g.f.n., dotsent*  
*Shamuratova N.T. – g.f.n., dotsent*

**11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya /**  
**Геодезия. Картография /**  
**Geodesy. Cartography**

*Safarov E.Y. – t.f.d., professor*  
*Egamberdiyev A. – g.f.n., professor*  
*Musayev I.M. – g.f.n., dotsent*  
*Muborakov H. – t.f.d., professor*  
*Prenov Sh. – PhD*

**11.00.07 – Geoinformatika /**  
**Геоинформатика / Geoinformatics**

*Safarov E.Y. – t.f.d., professor*  
*Gulyamova L.X. – g.f.n., dotsent*  
*Mirmaxmudov E. – t.f.n., dotsent*  
*Abdullayev T.M. – t.f.n., dotsent*  
*Qurbonov B.T. – t.f.d., dotsent*

**Page Maker | Верстка | Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов**

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT


<b>1. Расулов А.Б.</b> БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИНГ АТРОФ-МУҲИТ МУҲОФАЗАСИДА ТУТГАН ЎРНИ ХУСУСИДА.....	4
<b>2. Матназаров А.Р.</b> ЎЗБЕКИСТОНДА ТОҒ МУЗЛИКЛАРИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ АСПЕКТЛАРИ.....	15
<b>3. Эгамов Б.Ю.</b> ФИТРАТ ВА ГЕОГРАФИЯ.....	24
<b>4. Хамрокулова Ш.Э.</b> ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ.....	31
<b>5. Алимова С.З.</b> МИГРАЦИЯ ВА АҲОЛИНИНГ МИГРАЦИОН ҲАРАКАТИ.....	37
<b>6. Хасанова Н.Н.</b> ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КНР И ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЕГО ОПЫТА В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	44
<b>7. Rayimov R.I., Ibragimov Sh.U., Sag`dullayev Q.A.</b> ХИТОЙ ИҚТИСОДИЙОТИНИ HUDUDIY TASHKIL ETISHNING ASOSIY YO`NALISHLARI.....	51
<b>8. Mukhamadaliyeva N., Shamuratova N.</b> LINKING RURAL TOURISM TO AGRICULTURE IN UZBEKISTAN.....	58
<b>9. Tuvg`unova N.E.</b> OROLBO`YI MINTAQASINI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XALQARO NAMKORLIK.....	63
<b>10. Мирзаева Н.А.</b> ЭКОЛОГИК ТАФАККУР ВА ОНГ ТАЛАБАЛАР ЭКОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИГИНИНГ АСОСИ СИФАТИДА.....	67
<b>11. Аширов М.Б., Рахматуллаев Ж.Ф.</b> МИНЕРАЛЬНЫЕ ПАРАГЕНЕЗИСЫ И РАСШИРЕНИЕ РЕСУРСОВ СКАРНОВО- РЕДКОМЕТАЛЬНЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ КОЙТАШ И ЛЯНГАР.....	73
<b>12. Аширов М.Б., Рахматуллаев Ж.Ф., Чўллийев Ф.С.</b> ЯНГИ ДОВОН КОНИ МАЪДАН ТАНАЛАРИНИ МОРФОЛОГИЯСИ ВА УЛАРНИ ҚАМРОВЧИ ТОҒ ЖИНСЛАРИНИНГ МИНЕРАЛОГИК ТАРКИБИ.....	84

# ГЕОГРАФИЯ: ТАБИАТ ВА ЖАМИАТ ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО GEOGRAPHY: NATURE AND SOCIETY

11.00.05 – Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish  
ЭКОЛОГИЯ ВА АТРОФ-МУХИТ МУХОFAZASI

**Tuyg`unova Nozima Ergashevna,**  
Navoiy viloyati Zarafshon shahridagi 11-MFIUMning  
geografiya fani o`qituvchisi

**OROLBO`YI MINTAQASINI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA XALQARO  
HAMKORLIK**

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0834-2020-3-9>

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Orolbo`yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, bu boradagi mintaqaviy va xalqaro hamkorlik masalalari va ularning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritib o`tilgan.

**Tayanch so`zlar:** Orol dengizi, Orolbo`yi mintaqasi, suv resurslari, ekologik muammolar, BMT, Trast fondi, Orolni qutqarish xalqaro jamg`armasi.

**Туйгунова Нозима Эргашевна,**  
Учитель географии государственного  
специализированного общеобразовательная школа  
№11 г. Зарафшан Навоийской области

**МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО ПО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО  
РАЗВИТИЯ РЕГИОНА АРАЛЬСКОГО БАССЕЙНА**

## АННОТАЦИЯ

В данной статье освещаются меры, принимаемые в нашей стране по социально-экономическому развитию региона Приаралья, а также вопросы регионального и международного сотрудничества в этой сфере.

**Ключевые слова:** Аральское море, регион Приаралье, водные ресурсы, экологические проблемы, ООН, Фонд Траста, Международный фонд спасения Арала.

**Tuygunova Nozima,**  
Geography teacher of specialized school No. 11  
in Zarafshan city, Navoi region

**INTERNATIONAL COOPERATION FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF  
THE ARAL BASIN REGION**

## ABSTRACT

This article deals with the work carried out in our country in the socio-economic development of the Aral Sea region, regional and international cooperation issues and their organizational and legal bases.

**Key words:** The Aral Sea, The Aral Sea region, water resources, ecological problems, the UN, the Trust Fund, International Fund for Saving the Aral Sea.

Yaqin yillarga qadar dunyoda kattaligi jihatidan to'rtinchi, Osiyoda esa ikkinchi o'rinda turgan Orol dengizi o'rnida bugungi kunga kelib 5 mln gektar maydonda cho'l landshafti tarkib topdi. Bu nafaqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo, qolaversa butun insoniyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadigan ekologik muammo hisoblanadi. Orol dengizining qurishi va bu bog'liq bo'lgan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar vaziyat mintaqaning barqaror rivoji, genofondi va kelajak avlodiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid solib kelmoqda.

Orol dengizining qurishi oqibatda suv resurslari taqchilligi, ichimlik suvi sifatining yomonlashuvi, tuproqning degradatsiyaga uchrashi, bioxilma-xillikning keskin kamayishi, iqlim o'zgarishlari yaqqol sezilib turibdi. Orolbo'yi hududi o'zining xilma-xil hayvonot va o'simlik dunyosiga ega bo'lib, ushbu suv havzasida 38 turdagi baliq va kamyob hayvonlar mavjud bo'lgan. Jayronlar 1 mln boshga yetib, flora 638 turdagi o'simliklarni tashkil etgan.

Orol dengizi 1960-yilgacha eng yirik ko'llardan biri bo'lib, maydoni 68,9 ming km<sup>2</sup>, suv miqdori 1083 km<sup>3</sup>, uzunligi 426 km, kengligi 284 km va eng chuqur joyi 68 m ni tashkil etgan.

Orol dengizi mintaqa iqtisodiyoti rivoji, sanoat ishlab chiqarish, aholi bandligi va barqaror ijtimoiy infratuzilmani shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. XX asrning 80-yillargacha suv havzasida yillik baliq ovlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan, Orolbo'yi regionida yashovchi aholining 80% dan ortig'i baliqchilik tarmog'ida band bo'lgan.

Orolbo'yi muammosi – bu mintaqada yashayotgan xalqlarining umumiy muammosi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1993-yilda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston ishtirokida tashkil etilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi Markaziy Osiyoda vaqt sinovidan o'tgan yagona mintaqaviy tashkilot bo'lib, mamlakatlar o'rtasida bu boradagi hamkorlikning amaliy mexanizmi bo'la oladi. Bugungi kunda tashkilotga Turkmaniston raislik faoliyatini olib bormoqda.

Ushbu xalqaro jamg'armasi tomonidan qabul qilingan "Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatini oldini olish Dasturi" Orolmuammosi oqibatlariga barham berish bo'yicha quyidagi muhim tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- 1) Orolbo'yida yashash, aholi genofondini qayta tiklash va saqlash uchun sharoit yaratish;
- 2) suv resurslari boshqaruv tizimini takomillashtirish va undan tejamkorlik bilan foydalanish, Orol dengizi akvatoriyasida tabiiy havzalar tizimini saqlash;
- 3) qurib borayotgan dengiz o'rnida daraxtzorlar tashkil etish va ushbu mintaqani sahroga aylanishini oldini olish bo'yicha keng ko'lamdagi tadbirlarni amalga oshirish;
- 4) bioxilma-xillikni saqlash, biologik resurlarni qayta tiklash, hayvonot va o'simlik dunyosini saqlash;
- 5) kelgusida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining institutsional asoslarini takomillashtirish va ushbu tashkilot doirasida mintaqa mamlakatlari hamkorligini mustahkamlash, shuningdek, Orol fojiasi bilan bog'liq muammolarni hal etishga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratish.

1990-yildan boshlab Orol inqirozini boshidan kechirayotgan davlatlar BMT, shuningdek, boshqa xalqaro va moliyaviy tashkilotlar minbarlaridan jahon hamjamiyatining diqqat-e'tiborini Orolbo'yi muammoasiga, uning mintaqaviy va global xavfsizlik bilan chambarmas bog'liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutq so'zlab, jahon hamjamiyati e'tiborini yana bir marta Orolbo'yi muammoasiga qaratdi, "dengizning qurishi bilan bog'liq oqibatlarni bartaraf etishda xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarning o'rni muhim" ekanligini ta'kidladi.

Orolbo'yida ekologik vaziyatni yaxshilash, ushbu mintqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat siyosating ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada keying yillarda aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilmoqda. Moliya vazirligi huzurida Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi va unga 200 mlrd so'mdan ortiq mablag' ajratildi. Ana shu mablag'lar hisobidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining suv ta'minoti, turmush sharoiti yaxshilanmoqda. Shu bilan birga mazkur hududlarda 3 ming km dan ortiq ichki yo'llar ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi.

Orol dengizining qurigan tubida bugungi kunda Orolqum sahrosi paydo bo'lib, bu yerdan ko'tarilayotgan chang-to'zon va tuzlar qishloq xo'jaligi va aholi salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning oldini olish maqsadida mamlakatimiz o'ziga xos yo'lni tanladi, ya'ni Orolbo'yi mintaqasida saksovul va boshqa issiqqa chidamli o'simliklar ekib, o'rmonzorlar barpo etish. Bunday hududlarning umumiy maydoni hozirgi kunda 700 ming gektarni tashkil etmoqda. 2019-yil davomida jami 500 ming gektar maydonda o'rmonzorlar barpo etilishi ko'zda tutilgan.

Bu kabi ishlarning uzviy davomi sifatida Prezidentimizning 2017-yil 18-yanvarda "2017 – 2021-yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi. Mazkur qarorga binoan Orolbo'yi aholisining turmush sharoiti va sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan Davlat dasturi tasdiqlanib, unga ko'ra yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash, suv ta'minoti tizimini rivojlantirish va aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya masalalari, transport-kommunikatsiya sohasidagi o'zgarishlari, bir so'z bilan aytganda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'zda tutilgan.

2018-yil 27-noyabr kuni BMT shafeligida tuzilgan Orolbo'yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosia trust fondi Orol dengizi inqirozi inqirozini bartaraf etish bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtiradi. O'zbekiston hukumati har yili Fond jamg'armasiga 2 mln AQSH dollari ajratadi. 2019-yil 1-aprel kuni Norvegiya hukumati O'zbekistonning Orolbo'yi hududi uchun 1,2 mln AQSH dollari ajratdi. Norvegiya Fondga mablag' kiritgan birinchi tashqi donor bo'ldi. O'ylaymizki, bu kabi davlatlar soni kelgusida yana oshadi, Orolbo'yi mintaqasi bo'yicha xalqaro hamkorlik kengayadi.

Yaqnida BMT Bosh kotibi Antoniu Gutterish Instagram tarmog'ida o'z sahifasini ochdi va birinchi bo'lib joylashtirgan fotolaridan biri 2017-yili O'zbekistonda bo'lib, Orol dengiziga brogan vaqtida olingan. "Ikki yil avval Orol dengiziga borib, davrimizning eng yirik ekologik fojialaridan biriga guvoh bo'lgandim. Orol dengizi qachonlardir dunyoda kattaligi bo'yicha to'rtinchi ko'l bo'lgan. Uning bir necha o'n yilliklar mobaynida qurib borishi mintaqa xalqlari va hukumatlari uchun qator muammolarni keltirib chiqardi. Safarim davomida to'g'ri munosabat va qo'llab-quvvatlash bo'lgan taqdirda ko'p narsa o'zgarishi mumkinligini ham ko'rdim", - deya yozib qoldirgan BMT Bosh kotibi.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida Orolbo'yi mintaqasiga yana hayot qaytmoqda. Birlashgan Arab Amirliklarining "International fund for houara conservation" markazida O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan yo'rg'atuvaloqlar ko'paytirib, tabiat qo'yniga qo'yib yuborilmoqda. Yana bir quvonarli holat – Mo'ynoqdagi Sudochoye ko'lga pushti flamingolar galasi qaytib keldi. So'nggi yillara bu qushlar soni muntazam ko'payib bormoqda va bu hududda ular uchun qulay yashash muhiti yaratilayotganidan darak beradi.

Orol dengizi oldingi holatiga qaytarish qiyin ish ekanligini bilamiz, lekin uning atrofidagi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega. Orolbo'yi hududi "Ekologik innovatsiyalar va turizm mintaqasi" deb e'lon qilinib, bu yerda 2017-yilda ikkita turistik kompleks tashkil qilindi. Birinchi turistik kompleks Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq tumanidagi Aq tumsiq manzilidagi Tazabay Grand Service kompaniyasi tomonidan tashkil qilingan. Shuningdek, ushbu joyning o'zida – Orol dengizi sohilida Muinok tour kompaniyai tomonidan ikkinchi turistik baza ochilgan. Har yili minglab sayyohlar bu yerga "Kemalar qabristoni" va Orolbo'yini ko'rish uchun tashrif buyuradi. Kelgusida hududda turizm infratuzilmasini, ekologik va madaniy turizm sohasini rivojlantirish asosiy masalasi sifatida ko'rilgan.

Xulosa qilib aytganda, Orolbo`yi mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish O`zbekiston uchun muhim yo`nalishlardan biri, bu vazifalarni amalga oshirishda Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik, qolaversa xorijiy mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan keng ko`lamdagi aloqalarning yo`lga qo`yilishi va amalga oshirilishi Orol muammoasini ijobiy hal etishga, ekologik vaziyatni yaxshilashga va mintaqa aholisining farovonligini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

### Iqtiboslar

---

1. O`zbekiston Respublikasi Preidentining “2017 – 2021-yillarda Orolbo`yi mintaqasini rivojlantirish dasturi to`g`risida”gi Qarori.
2. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so`zlagan nutqi.
3. Orolni qutqarish xalqaro jamg`armasining “Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo`yi ekotizimi halokatini oldini olish Dasturi”
4. I. Zonn and others. The Aral Sea Encyclopedia. Springer-Verlag Berlin Heidelberg, 2009.
5. [www.uzbektourism.uz](http://www.uzbektourism.uz) – O`zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi rasmiy sayti
6. [www.uza.uz](http://www.uza.uz) - O`zbekiston Axborot agentligi rasmiy sayti.

## **GEOGRAFIYA: TABIAT VA JAMIYAT**

**3 SON, 1 JILD**

## **ГЕОГРАФИЯ: ПРИРОДА И ОБЩЕСТВО**

**НОМЕР 3, ВЫПУСК 1**

## **GEOGRAPHY: NATURE AND SOCIETY**

**VOLUME 3, ISSUE 1**

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000